



**MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В
ОБЛАСТИ ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES AND PROSPECTS IN THE
FIELD OF HOSPITAL PEDAGOGY**

international scientific - practical conference



3-dekabr 2024-yil



**MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**GOSPITAL PEDAGOGIKA SOHASIDAGI
DOLZARB MASALALAR, ILG'OR
TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR**

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ, ПЕРЕДОВОЙ
ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ В ОБЛАСТИ
ГОСПИТАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ**

международная научно – практическая конференция

**CURRENT ISSUES, ADVANCED EXPERIENCES
AND PROSPECTS IN THE FIELD OF HOSPITAL
PEDAGOGY**

international scientific - practical conference

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM
JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI
TASHKIL ETISH**

**Ernazarova Munisxon Jo'raqulovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrası o'qituvchisi
Telefon: +998917793882**

munisxonernazarova21@gmail.com

**Xursanova O'giloy
Ikromova Muqaddas
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika yo'nalishi talabalari**

Tayanch so'zlar: o'qituvchi, pedagogika, qadriyat, tarix, ko'nikma, ma'naviyat, Malaka, bilim, tarbiya, odob-axloq, adolat, hurmat, hamjihatlik, o'zaro yordam yondashuv.

Ключевые слова: учитель, педагогика, ценность, история, мастерство, духовность, квалификация, знание, воспитание, манеры, справедливость, уважение, солидарность, взаимопомощь.

Key words: teacher, pedagogy, values, history, skills, spirituality, competence, knowledge, upbringing, ethics, justice, respect, solidarity, mutual aid approach.

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim jarayonida qadriyatli yondashuv asosida darslarni tashkil etish o'quvchilarda qadriyatli yondashuvini shakllantirish, mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini o'rganish va hayotga tatbiq etishni shakllantirish borasida so'z yuritilgan.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida g'oyaviy jarayonlarning globallashuvi, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot hamda o'quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar

ruhida tarbiyalash, ta'lim jarayoniga keng miqyosda tadbiq etilmoqda. Xususan ko'pgina davlatlarida o'quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maqsadida ta'lim dasturlariga "Fuqarolik" tarbiyasi fanlari kiritilib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta'lim tizimining turli ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida aniq taraqqiyot strategiyasini belgilagan holda yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhini singdirishda jamoaviy tashkilotlarning rolini kuchaytirish, yoshlarni jamoa ishlarida keng ishtirokini ta'minlash, ta'lim jarayoniga fuqarolik tarbiyasiga oid fanlarni kiritish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda o'quvchi-yoshlarning davlat tadbirlarida ishtirokini kuchaytirish, talaba-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jamoaviylik, mas'uliyatlilik, irodaviylik, o'z yurtining tarixi va madaniyatini o'rganish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalariga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum va uning kelajagi insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi.¹¹ Respublikamizda ham so'ngi yillarda maktab o'quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, o'quvchi-yoshlarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, o'z xalqining tarixiy boy-an'analari, boy madaniy merosiga hurmat qarash kabi ijtimoiy-madaniy ta'limiy me'yorlar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari yaratilmoqda.

¹¹ "Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish" Ernazarova M.J. "Muғallim ҳәм үзликсиз билимлендириў" Илимий-методикалық журнал

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan belgilangan asosiy ustuvor vaziflardan biri “Yangi avlod kadrlarida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik, ma’naviy barkamol, ma’naviy-ruhiy va intellektual, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega, demokratik islohotlarni chuqur anglagan va fuqarolik jamiyatini qurishda, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash”¹² asosiy vazifa sifatida qaralmoqda. Natijada o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim jarayonini qadriyatli yondashuv asosida tashkil etish, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi nuqtai nazaridan kelib chiqib darslarni tashkil etishda har bir o‘qituvchi quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Jumladan:

- maktabda ta’lim jarayonida asosiy qadriyatlar sifatida adolat, hurmat, hamjihatlik va o‘zaro yordam kabi tushunchalarni belgilash va ularni o‘quv dasturlariga kiritish

- qadriyatli yondashuvni barcha fanlarga integratsiya qilish

- har bir darsda o‘quvchilarni qadriyatlar haqida o‘ylashga va ulardan foydalanishga undash.

- o‘qituvchilar o‘zlarini nafaqat bilim beruvchi sifatida, balki o‘quvchilarga qadriyatlarni namoyish etuvchi rolida ko‘rsatishlari

- o‘quvchilarga yaxshi namuna bo‘lishlari, muammolarni hal qilishda qadriyatlarni qo‘llashlari

- o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilish, ularning fikrlarini tinglash va qadriyatlar asosida muhokama qilish imkoniyatini yaratish

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

- maktab ichida ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish ya’ni o‘quvchilar o‘rtasida hurmat va hamjihatlikni rivojlantirish uchun turli tadbirlar va faoliyatlar tashkil etish.

- ta’lim jarayoniga tarbiyaviy tadbirlar, seminarlar va treninglar kiritish orqali o‘quvchilarda qadriyatlar bilan bog‘liq bilimlarni oshirish.

Shuningdek oila va jamoani ta’lim jarayoniga jalb qilish, ularning fikrlarini inobatga olish va hamkorlikda ishlash orqali qadriyatli yondashuvni yanada mustahkamlash mumkin bo‘ladi.

Bunday yondashuv nafaqat o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘quvchi yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi va kelajakda jamiyatga foydali fuqarolar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan qadriyatlar(adolat, hurmat, hamjihatlik va o‘zaro yordam)ni o‘quvchi ongiga singdirish maqsadida avvalo har bir darsni rejasini tuzishda o‘quv fanlarini qadriyatlar bilan bog‘lanishi, har bir darsda ma’lum bir qadriyatni o‘quvchilar bilan muhokama qilinishi va u bilan bog‘liq masalalarni o‘rganib borish muhim.

Bu qadriyatlarni o‘quvchi ruhiyatiga singdirish, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash uchun esa interfaol metodlarni qo‘llash zarur. Bu interfaol metodlarga guruhli ishlar, munozaralar va rolli o‘yinlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu metodlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifoda etishadi va qadriyatlarni amaliyotda qo‘llashni o‘rganadilar.

Shuningdek darslarda real hayotdagi muammolarni muhokama qilish va ularni hal qilishda qadriyatlarni qo‘llash ham juda yaxshi natija beradi. Masalan, ijtimoiy adolat yoki ekologik muammolarni o‘rganish orqali o‘quvchilarga mas’uliyat hissini oshirish mumkin.

Ota-onalar va jamoa a’zolari bilan birgalikda tadbirlar tashkil etish, sinfda o‘zaro hurmat, hamjihatlik va qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish orqali ham o‘quvchilarni bir-biriga yordam berishga, fikrlarni hurmat qilishga va birgalikda ishlashga odatlantirsa bo‘ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, insoniyat paydo bo'lib tarbiya borasidagi ilk qarashlar shakllana boshlabdiki, komillik tarbiyasi, yoshlarning milliy g'urur, milliy iftixor, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini rivojlantirish masalasi har bir insonning oliy maqsadi va har bir davr mutafakkirlari asarlarning asosiy g'oyasi hisoblanib kelgan. Bugun ham bu masala o'zining dolzarbligini yo'qotmagan masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

2.X.I.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika (darslik). –T., "Shaffof", 2023.

3. Ibragimov, X., and Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya (2008).

4. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). -T.: O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati, 2004.

5. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida klasterli yondashuv asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish" Ernazarova M.J. "Муғаллим ҳам үзликсиз билимлендириў" Илимий-методикалық журнал

6. "Bo'lajak o'qituvchilarda kasbga qadriyatli yondashuv ko'nikmasini shakllantirish " Ernazarova M.J. "Муғаллим ҳам үзликсиз билимлендириў" Илимий-методикалық журнал

203.	Юлдашева Гулшад Тилеувна Пономаренко Вероника Павловна	ВЛИЯНИЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ НА МОТИВАЦИЮ УЧАЩИХСЯ В ИЗУЧЕНИИ ИНФОРМАТИКИ: ИГРОВЫЕ ЭЛЕМЕНТЫ (БАЛЛЫ, УРОВНИ, ДОСТИЖЕНИЯ) ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ СТУДЕНТОВ	945
204.	Xolmo‘minov G‘ofur Bobonazarovich Narzullayeva Nilufar Umidjon qizi	QADIMGI SHARQDA FALSAFIY BILIMLARNING PAYDO BO‘LISHI	951
205.	Туганова Луиза Джураевна Бегалиева Шахзода Бекниязовна	РОЛЬ РЕЛИГИИ В НАЦИОНАЛЬНОМ СОЗНАНИИ И НАЦИОНАЛЬНОМ САМОСОЗНАНИИ	954
206.	Usmonova Rayhona Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna	IJTIMOIY TARMOQDAGI TAHDIDLAR	960
207.	Koshanova Nilufar Maxsudovna	MADANIYAT- JAMIYATNING MAVJUDLIK ASOSI VA YASHASH USULI SIFATIDA	965
208.	Turgunova Nargiza A‘zamjon qizi Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOMDA KASB ODOBLARI	971
209.	Boltaboyeva Mukarramxon Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM -MA‘RIFATPARVAR DIN SIFATIDA	974
210.	Tojiyev Erali Xoshim O‘g‘li Koshanova Nilufar Maxsudovna	ISLOM MA‘RIFATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO ISLOM AKADEMIYASINING O‘RNI	979
211.	Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna Bahodirova Mashhura Zafarovna	UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA TA‘LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	986
212.	Ernazarova Munisxon Jo‘raqulovna Ikromova Muqaddas	UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA TA‘LIM JARAYONIDA QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH	991